

## **28-Mavzu: Rivojlanayotgan mamlakatlarda demografik siyosat**

Reja:

1. Aholi ko'payishiga ta'sir etuvchi omillar
2. Aholi takror barpo bo'lishi turlari
3. Rivojlanayotgan mamlakatlar demografik siyosati

Jamiyatda insonlarning ko'payib, yangilanib turishini ta'minlovchi tug'ilish, o'lim va tabiiy o'sish jarayonlarining yig'indisi aholining takror barpo bo'lishi deyiladi. Aslida tug'ilish, o'lim, tabiiy o'sish asosan biologik jarayonlar bo'lsada, lekin ular qator ijtimoiy, iqtisodiy, tabiiy-biologik va demografik omillar ta'sirida shakllanadi. Mazkur omillarning xar biri o'z navbatida ijtimoiy xayotning turli qirralarini qamrab oladi.

**Ijtimoiy-iqtisodiy omillar:** ishlab chiqarish munosabatlarining xususiyatlari, ishlab chikaruvchi kuchlarning rivojlanishi, aholining turmush tarzi, ma'lumotlilik va madaniyat darajasi, ayollarning ijtimoiy xayotda to'tgano'rni, bandligi, din, urf-odat va qadriyatlar.

**Tabiiy-biologik omillar:** tabiiy sharoit, tabiiy ofatlar, erkak va ayol organizmining tashqi muxitga moslashish darajasi, iqlim va uning jinsiy etuklikka, farzand ko'rish davriga, turli epidemiya va kasalliklarga ta'siri.

**Demografik omillar:** aholining yosh-jinsiy tarkibi, nikox va ajralish jarayonlari. Agar aholi tarkibida yoshlar salmog'i yuqori va jinsiy mutanosiblik bo'lsa, nikoxga kirish, ya'ni oilalar paydo bo'lishi uchun demografik imkoniyat mavjuddir. Bu xol, o'z navbatida tutilishga ijobiy ta'sir etadi. Aksincha, aholi tarkibida kariyalar salmogi yuqoribo'lsa, tug'ilish kamayib, o'lim xollari ko'payadi.

**Aholi takror barpo bo'lishining ikki turi mavjud:**

I tur - aholi takror barpo bo'lishining kiskargan turi. Bu turdagi avlodlar almashinuvi jarayonida aholi soni kupaymaydi, chunki tug'ilganlarga nisbatan o'lganlar soni yuqoribo'ladi.

II tur - aholi takror barpo bo'lishining kengaygan turi, bunday aksincha, tug'ilganlar soni o'lganlar sonidan yuqoribo'ladi va natijada keyingi avlod vakillarining soni oldingi avlod vakillari sonidan ko'p bo'ladi. Bunday holda aholi muntazam ko'payib boradi.

Jamiyatda avlodlar almashinuvi, aholi sonidagi o'zgarishlar tug'ilish va o'lim jarayonlariga bevosita bog'liqdir. Tug'ilish va o'limning o'zaro farqi esa aholining tabiiy o'sishini belgilaydi.

Yuqorida kayd etilganidek, keyingi 20-30 yil davomida dunyo aholisining kupayish sur'ati anchagina sekinlashdi. Bu jarayonniig asosiy sababi sayyoramizdagi qator davlatlarda tug'ilishning kamayib borishidir va u tarixiy jarayon bo'lib, xar bir xalqning ijtimoiy-iqtisodiy taqqiyot darajasi bilan bog'liq. Ma'lumki, insoniyat o'z taqqiyoti davomida bir necha ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarni bosib o'tgan.

Tug'ilish darajasi jamiyat taraqqiyotining hamma bosqichlarida ham bir xil bo'lavermagan. Kapitalistik formatsiyagacha mavjud bo'lgan davrlarda tug'ilish biologik xarakterga ega bo'lgan, ya'ni cheklanmagan. Ko'pbolalik holati jamiyat tomonidan quvvatlangan. Buni xozirgi jamiyat taraqqiyoti bosqichida yashab tasavvur qilish qiyin. Masalaning tub moxiyatiga nazar tashlansa, bu o'tmish zamonlardagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bevosita bog'liqdir. Quldorlik davrida ham, feodalizmda ham ko'pbolalikdan xar bir oila va shu bilan birga jamiyat ham manfaatdor edi. Nega shunday? Eng avval oilada bolaning iqtisodiy o'rni nisbatan yuqori edi. Kupgina mamlakatlarda oila yumushlarida, xunarmandchilikda, dexkonchilikda va chorvachilikda bolalar mehnatidan foydalanilgan. Oilada iqtisodiy daromadning bir qismi bevosita bolalarning mehnati orkali yaratilgan. Demak, bola mehnati milliy daromadning ma'lum ulushini tashqil etgani sababli, u jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Xatto, ba'zi davlatlarda, masalan, Rossiyada dexqonlarga ishlash uchun beriladigan er ham bolalar soniga qarab taqsimlanardi. Bunday sharoitdafarzand tug'ishda iqtisodiy taraqqiyotbo'lmaydi. Shunday holatlar ham tug'ilishning kamayib ketishnga olib keladi. Umuman olganda, kakitalistik munosabatlarniig keng

tarkalishi va rivojlanishi onlarning farzandlarga bo'lgan ham iqtisodiy, ham ma'naviy ehtiyojini pasaytirib yuboradi. Fikrimizning dalili sifatida rivojlangan kapitalistik davlatlardan biri AQSh oilalaridagi tug'ilish kursatkiçlariga murojaat qilsak. Agar 1950 yil xar bir Amerika oilarida o'rtacha 3-4 tadan bola tug'ilgan bo'lsa, 1970 yil bu kursagkiç 3 tagakamaydi. Keyingi vaqtlarda AKShda farzandsiz oilalarko'payib bormoqda. Bu davlatda o'tkazilgan tadqiqotlar ko'rsatishicha, ko'pchilik oilalarda faqat bittadan farzand bo'lgan, ularning 44 % kutilmaganda, 15% esa hohlamagan xolda tug'ilgan ekan. Mutaxassislar bu axvolni "Amerika oilasida inqiroz" deb atashmokka. Bu inqiroz Amerika Qo'shma Shtatlari uchun muammomi, yukmi? U ni shu davlat axolisining taraqqiyot tarixidan kelib chiqib aniqlamok lozim.

Shunday qilib, biz yuqorida jahon mamlakatlari oilalarida tug'ilish jarayondagio'zgarshilar bilan tanishib chikdik. Ma'lum bo'ldiki, xozirgi vaqtda er yuzasi xalklarning tug'ilish jarasni bir xil emas ekan. Bir toifa mamlakatlarda oilalarni, tug'lishi juda kamayib ketgan bo'lsa, ikkinchi toifa xilida judayuqori. Bu xol yuqorida aytshganidek, turli ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liq.

Dunyo aholisi sonining o'zgarishida o'lim ham asosiy omil hisoblanadi. Aholi o'limi jamiyat rivojlanishi davomida katta ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida sodir bo'lib kelgan. Moddiy shart-sharoitlarning yaxshilanib borishi o'lim xollarining kamayishiga, aksi esa kupayishiga sabab bo'lgan. Sog'liqni saklash tizimining rivojlanishi, aholiga tibbiy xizmatko'rsatish darajasining oshib borishi ham o'limga bevosita ta'sir etuvchi omillardandir. Shuningdek, tug'ilish biologik imkoniyat darajasida bo'lganda, ko'pbolalilik an'analari rivojlangan davrlarda tug'ilgan farzandlar orasidagi davr, muddat (protogenetik davr: nikoxga kirgandan birinchi farzand tug'ilguniga qadar o'tgan vakt; intergentik davr: birinchi va ikkinchi, ikkichi uchinchi, uchinchi va to'rtinchi va x.k. farzandlar tug'ilishi orasidagi davr) qisqa (1,2-2 yil) bo'lgan xollarda ham go'daklar, onalar o'limi yuqoribo'ladi.

XX asr 50-yillariga qadar dunyoning barcha xududlarida hamo'limyuqori darajada edi. Ushbu davrga qadar aholi o'limidako'proq ekzogen (tashqi muxit

ta'siridagi omillar: urushlar, epidemiyalar, baxtsiz xodisalar, tabiiy ofatlar) omillar sabab bo'lgan. Aholining juda ko'p qismi, ayniqsa Osiyo, Afrika xududlarida yuqumli infeksiyon kasalliklardan bolalik davrida ko'z yumishgan. Kadimda er sharidago'daklar va ayollar o'limi ayniksa, yuqoribo'lgan. Ko'pchilik ayollar farzand ko'rish davrlarida turli kasalliklar ayniksa, qon yo'qotish tufayli xalok bo'lganlar. Markaziy Osiyo davlatlarida XIX asr oxiri XX asr boshlarida xar 1000 ta tug'ilgan chaqaloqlardan bir yoshgacha bo'lgan davrda 300-400 tasi, ba'zi davrlarda esa 500-600 tasi nobud bo'lgan. Kadimda aholi o'limining yuqoriligi, kayd etilganidek, aholining turmush darajasiga, tibbiy xizmatlarning etishmasligiga, aholining ma'lumotlik darajasining pastligiga, farzandlar tug'ilishining yuqoriligi va farzandlar tug'ilishi orasidagi davrning nisbatan qiskaligi kabi omillar bilan bog'liq edi.

Umuman, sayyoramiz aholisida oilalardafarzanddar soni o'rtacha 4,1 dan to 7,0 gacha, ba'zi xollarda esa undan ham yuqoribo'lgan. Tug'ilishi eng yuqori sanalgan davlatlar Afg'oniston, Gvineya-Bisau va Niger bo'lib, ularda tug'ilishningyig'indi koeffitsient 7.1-7,7 ni va Yamanda 6,7 ni, Mali va Kongoda 6,2 ni tashkil etadi. Ushbu davlatlardagi oilalarda tug'ilish darajasining bunday yuqoribo'lishiga olib keluvchi qator omillar mavjuddir. Ulardan asosiylarn kuyidagilar: yukorida aytib o'tilgandavlatlar, asosan, iqtisodiy jixatdan rivojlanayotgan davlatlarbo'lib, ayniksa,

- ayollarning malumotlilik darajasi nisbatan past;
- ko'p bolalashni qo'llab-quvvatlovchi ananalar ko'proqsaqlanib kolgan;
- ayollar ijtimoiy ishlab chiqarishda kam ishtiroqetgan;
- shahar turmush tarzining shakllanishn sust;
- tug'ilishni cheklash xaqida tushunchalar va ung'a kerakli tibbiy vositalar keng tarqalmagan.

Ta'kidlab o'tish lozimki, tug'ilish darajasining yuqoriligi, bazi demografik oqibatlarini keltirib chikardi. Jumladan, aholining soni tez kupaya borib, ko'plab yangi oilalar vujudga keladi. Aholi tarkibida bolalar soni yuqori bo'ladi. Bu

demografik oqibatlar esa o'z o'rnida qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga sabab bo'ladi.

Tug'ilishi yuqori bo'lgan davlatlarda keyingi 15-20 yil ichida aholi soni yiliga 2,5-3,2 foizdan ko'payib bormokda. Bugungi kunda 40 dan ortik davlatda tug'ilishning yig'indi koeffitsienti 4,1-7.5 tashkish etmokda. Shuni alohida qayd etish lozimki, keyingi 10 yil ichida dunyodagi tug'ilish yuqori bo'lgan davlatlar soni kamaydi. 1989 yili bunday davlatlar goni 79 ni tashkil etganbo'lsa, 2015 yili ularning soni 27 taga kamaydi va 42 tani tashkilettdi. Agar 1989 yili ushbu davlatlarda istiqomat etuvchi aholi salmog'i dunyo aholisining 23 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilga kelib, bu ko'rsatkich deyarli 14 foizni tashkil etdi.

Ba'zi joylarda davlat tomonidan olib borilayotgak tug'ilishni cheklashga karattgan demografik siyosat ham tug'ilishning kamayishiga olib kelmokda. Buni Osiyoning eng yirik davlatlari - Xitoy va Xindiston misolida ko'rish mumkin.

Xitoyda oiladagi bolalar sonini cheklash davlat dasturiga kiritilgan. 1970 yillardan boshlab, aholi o'rtasida tug'ilishni kamaytirish uchun qator tadbirlar qo'llana boshlandi, natijada Xitoyda tug'ilish keskin kamaydi. BMT ma'lumotlariga qo'ra ,1970-1974 yillardahar bir ayol o'zining farzand ko'rish davrida o'rtacha 4,8 farzand ko'rgan bo'lsa, 1986-1990 yillarda 2,1, 2005 yili 1,7 tadan farzand ko'rishgan.

Hindistonda ham tug'ilish davlat tomonidan nazorat qilinadi. Oilada bolalar sonini cheklash davlat dasturiga kiritilgan. Bu masala yuzasidan bir qancha tashqilotlar maxsus tadqiqot olib boradilar. Ular jumlasiga oilani rejalashtirish assotsiatsiyasi, Xindiston tibbiyot assotsiatsiyasi, Xindiston Kdzsh yarim oy jamiyati kabi tashqilotlar kiradi.

Xindistonda tug'ilishning kamayishiga aholi savodlilik darajasining oshishi ham ta'sir etmokda. Masalan, 1971 yili Xindiston aholisining 29,4 % savodli edi. Xozirgi davrda 40 % dan yuqori aholi savodlidir.

Tug'ilishni nazorat kilish hamda xalkning savod darajasini ko'tarish, tibbiyotni rivojlantirish natijasida Xindiston davlati tug'ilishni ancha

kamaytirishga erishgan. Masalan, 1970-2005 yillarda xar bir ayol o'z umri davomida ko'rgan farzandlari soni 5,4 dan 2,9 gacha kamaydi.

Ma'lumki, Osiyo aholisining 70 % dan kuprogini Xitoy va Xindiston aholisi tashqil etadi. Shuning uchun Xitoy va Xindistonda tug'ilishning nisbatan kamayishi butun Osiyo buyicha tug'ilish ko'rsatkichiga ta'sir qildi. 1970-2005 yillarda tug'ilish Osiyoda deyarli 2 barobar kamaydi va tug'ilishning yig'indi koeffitsienti 2005 yilda 2,4 ni tashqil etdi.

Shunday kilib, sayyoramizda istiqomat kiluvchi aksariyat xalqlarda XX asr ikkinchi yarmidan boshlab, tug'ilish keskin kamaya boshladi. Dunyodagi davlatlarni tug'ilishning bugungi holatiga qarab shartli ravishda uch guruxga ajratish mumkin:

- tug'ilishning yig'indi koeffitsienti 2,1 dan past bo'lsa, tug'ilish darajasi past sanaladi;
- 2,1-4,0 bo'lsa, tug'ilish darajasi o'rtacha bo'ladi;
- 4,1 va undan yuqori bo'lsa, tug'ilish darajasi yuqori hisoblanadi.

Ushbu demografik mezonga asosan dunyo davlatlarini tug'ilish holati buyicha guruxlarga ajratish mumkin.

Birinchi guruh - tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan davlatlar: Afrika davlatlari (Misr, Tunis, Moris va Seyshel orollaridan tashqari), Osiyo va Janubiy Amerikadagi qator davlatlardahamxar bir oila bolalar sonining ko'payganidan manfaatdor bo'lgan.

Sayyoramizda tug'ilishning xududlar buylab farq kilishi, avvalo, ma'lum davlat aholisining moddiy va madaniy turmush darajasi, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda bandligi hamda shu davlat xalkining asrlar davomida shakllanib, saklanib kelayotgan milliy urf-odatlar va dini bilan bog'liq. Bulardan tashqari, tug'ilishga aholining jins va yosh bo'yicha taqsimlanishi, nikohdan o'tish va ajralishi kabi demografik omillar, psixologik omillar, tibbiyotning rivojlanishi hamda xar bir davlat tomonidan olib borilayottan demografik siyosat ham tasir qiladi.

Yuqorida kayd ztilganidek, umuman, statistik ma'lumotlarga qaraganda, keyingi 20-25 yil ichida dunyoning deyarli hamma qismida tug'ilishning kamayib borishi kuzatilmokda.

O'lim jarayoni XX asr ikkinchi yarmi - XXI asr boshlarida 2-2,5 marta kamaygan. Xozirgi davrda o'limga endogen omillar (organizmning qarishi va uning kasallanishi tufayli sodirbo'lgan ichki muxit omillari). Bu xol, albatta, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, turmush tarzishshg yaxshilanishi, aholi tibbiy xizmat ko'rsatishning oshib borishi bilan bog'liq.

Aholi o'limining umumiy koeffitsienta buyicha eng yuqori ko'rsatkich rivojlanayotgan davlatlarda (Serra-Leone - 29 %, Botsvana - 26%, Mozambik - 23 %). Ushbu kursatkichlar aholi o'limining umumiy koeffitsientiga aholi yosh tarkibining bevosita ta'sirini yaqqol ifodalaydi.

Aholi o'limi buyicha anik ma'lumotlarni, aholining turli yosh guruxdari buyicha aloxida hisoblangan umumiy koeffitsientlari hamda aholining kutilayotgan o'rtacha umr ko'rishi ko'rsatkichlari orqali aniqlash maqsadga muvofivdir.

Kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish muddati yangi tug'ilganlar uchun hisoblanadi. Bu holdatug'ilgan bolalarni ulg'ayib borishida yoki bir yosh guruxidan ikkinchi yosh guruxiga o'tishda shu yosh guruxlarida o'rganilayotgan davrdagi o'limholati hisobga olinadi. Olingan natija aholi o'rtacha umr ko'rish muddatini hisobi bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Rossiyada 1993 yil o'g'il bolalar uchun go'daklar o'limi 20,0 % edi. Demak, tug'ilgan 1000 ta boladan 20 tasi 1 yoshgacha yashamaydi. Ikki yoshli o'g'il bolalarda esa shu yili o'lim extimoli 6 kishini tashqil etgan. Ko'rinib turibdiki, 1000 ta tug'ilgan boladan 1 yoshga 980 tasi, 2 yoshga esa 974 tasi vafot etdi. Ana shunday usul bilan avlodning oxirigacha umr ko'rish extimoli hisoblab chiqiladi. Yuqorida kayd etilganidek, oldingi asrda aholi o'rtacha 30-35 yil umr ko'rgan. Xozir esa bu ko'rsatkich ikki barobarga oshgan. 2005 yilda aholi umr ko'rishi bo'yicha eng past kursatkichlar Markaziy va Janubiy Afrika davlatlarida kuzatilmoqda (erkaklar 42-44, ayollar 45-46 yosh).

Olimlarning hisoblashlaricha, yaqin yarim asr ichida sayyoramiz aholisi soni qariyb ikki baravar oshganidan keyin, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari barcha

mamlakatlarda umuman tenglashadi. Demografik o'sish nazariyasi go'yo insoniyatga resurslar etmay qolishi mumkinligi to'g'risidagi vahimali bashoratlarni rad etadi. Ovqatlanish bo'yicha xalqaro tashqilotning ma'lumotlariga qaraganda, mavjud resurslar bilib ishlatilsa, 20—25 mlrd odamni boqishga bemalol etadi. Ya'ni, olimlarning hisoblariga ko'ra, ular sayyoramizda yashaydigan odamlarning eng ko'p miqdoridan ham ko'proq miqdordagi odamlarni boqishga etarlidir.

Er kurrasi aholisi hozirgi kunda juda yosh, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda va bunday yosh tarkibi mehnatga layoqatli bo'lmagan aholini boqish sezilarli darajada iqtisodiy xarajatlarni talab qiladi. Masalan, 15 yoshgacha bo'lgan bolalar rivojlanayotgan mamlakatlarda umumiy aholining tahminan 40%, rivojlangan davlatlarda esa 21% tashqil qiladi. Shuning uchun rivojlanayotgan davlatlardagi ishlayotganlar rivojlangan davlatlardagiga qaraganda ikki barobar ko'proq bolani ta'minlashlari kerak. Hozirgi kunda Shvetsiya va Buyuk Britaniya aholisining tahminan 65 % mehnatga layoqatli larni tashqil qiladi, ishlayotganlar Shvetsiyada 18% va Buyuk Britaniyada 19% aholimehnatga layoqatli bo'lmagan yoshlarni qo'llab-quvvatlashi kerak. Bu mamlakatlarda asosiy muammolar tabiiy o'sish darajasining pastligi va 65 yoshdan yuqori bo'lgan qariyalar bilan bog'liq bo'lib, ular aholining 16-18% tashqil qiladi.

2050 yilga borib Italiya, Yaponiya, Rossiya kabi mamlakatlar aholisi qisqaradi, Buyuk Britaniya aholisi hozirgi darajada qoladi. Mali, Saudiya Arabistoni va Nigeriyada shu davr ichida aholi soni 3 baravar, Misr va Keniyada 2 baravar oshadi. BMT mutahassisarlari rivojlangan mamlakatlarning aholisi umuman 2050 yilga borib 1,8 mlrd kishidan 1,16 mlrd kishigacha qisqaradi, rivojlanayotgan mamlakatlarning aholisi esa 4,57 mlrd kishidan 8,2 mlrd kishigacha ko'payadi deb hisoblamogdalar.

Barcha zamonaviy demografik jarayonlar orasida aholi keksayishi jarayoni junroq o'lchanadigan, tahminlar qilinishi qulayroq va aslida, o'z oqibatlariga ko'ra xavfliroq bo'lgan jarayondir. Aholi keksayishining sababi ikki xildir. Bir

tomondan, bu - tug'ilish kamayishi bo'lib, buning oqibatida bolalar va yoshlar ulushi qisqaradi. Ikkinchi tomondan, - umr uzunligining oshishidir.

Aholining keksayishi bir qator iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Birinchidan, yoshi keksa odamlar ulushining oshishi o'z navbatida aholining iqtisodiy faolligi pasayishiga olib keladi. Odamning yoshi qanchalik katta bo'lsa, maxsuldorligi shunchalik past bo'ladi, deb hisoblanadi.

Ikkinchidan, aholining keksayishi iqtisodiyotda yoshlar ulushi kamayishini anglatadi, bu esa, ayrim tadqiqotchilarning fikricha, ish bilan band aholi kasb-malaka va tarmoq tarkibining o'zgarishi jarayoni va, binobarin, iqtisodiyot samaradorligi oshishini sekinlashtiradi. Iqtisodiy samaradorlik oshishining sekinlashishi aholi xarakatchanligining pasayishi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Uchinchidan, pensiya fondlari zimmasiga pensiyalar to'lash xarajatlarining benihoya og'ir yuki tushadi, zero, pensionerlar ulushi ko'payishi bilan bir yo'la pensiya fondlariga mablag' to'lab boradigan ishga qobiliyatli aholi salmog'i qisqaradi.

To'rtinchidan, nochor qariyalarga yordam ko'rsatishi lozim bo'lgan davlat ijtimoiy xizmatlariga ish ko'payadi, qariyalarni parvarish qilish uchun to'lov kabi muammolar ko'payadi.

Beshinchidan, yoshi qaytgan kishilarga tibbiy xizmatlar ko'rsatish uchun qo'shimcha mablag' sarflash, *gerontologik* muassasalar tarmog'ini kengaytirish va butun sog'liqni saqlash tizimini sifatli tarzda qayta ko'rishni talab qiladi.

Oltinchidan, xali ishlashni istaydigan «yosh qariyalar»ni ish bilan ta'minlash lozim. Bu oson vazifa emas, chunki, ma'lumki, pensiya yoshiga etmaganlarga ham ish o'rinlari etishmaydi. Yoshi qaytganlarda faol hayotiy pozitsiyani saqlab qolish, ularni ijtimoiy hayotga jalb etish, yolg'izlikka qarshi kurash ham g'oyat muhimdir.

Ettinchidan, aholining keksayishi moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining to'zilmasiga ta'sir etadi. Axir yoshi qaytganlarning talab-ehtiyojlariga muvofiq ravishda tovarlar va xizmatlar assortimentini o'zgartirishga to'g'ri keladi. Ba'zi texnologik operatsiyalarni ham o'zgartirish, mashina va uskunalarni xodimlarning yosh xususiyatlariga moslashtirish kerak bo'ladi.

«Qariyalar ko'payishi» asta-sekin butun dunyoni qamrab, ko'plab muammolarni yuzaga keltirmoqda. Insoniyat mazkur tendentsiya tufayli kelib chiqadigan vazifalarning muhimligini tushunib etishi darkor. Ko'pchilik mamlakatlar yoshi qaytgan odamlarning munosib hayot kechirishini ta'minlash uchun xozirdayoq ko'p ishlarni amalga oshirmoqdalar. Lekin keng qamrovli davlat siyosatining ishlab chiqilishi bu muammoni xal qiladi degan umiddamiz.

**Tayanch atamalar:** tug'ilish, o'lim, tabiiy o'sish, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, tabiiy-biologik omillar, demografik omillar, aholi takror barpo bo'lishining qiskargan turi, aholi takror barpo bo'lishining kengaygan turi

### **Nazorat va muhokama savollari:**

1. Aholi ko'payishiga ta'sir etuvchi qanday omillarni bilasiz?
2. Aholi ko'payishiga ta'sir etuvchi demografik omillarga nimalar kiradi?
3. Aholi takror barpo bo'lishi qanday turlari bor?
4. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qanday demografik siyosat olib borilmoqda?

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik. - T.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 b.
2. Bo'rieva M.R., Tojjeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – T.: Tafakkur, 2011. – 159 b.
3. Qodirov R.B. Farg'ona mintaqasi aholisi va mexnat resurslari.-T.: Navro'z, 2016

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

4. Abdurahnmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O'quv qollanma. - T.: Noshir nashriyoti. – 2011.
5. Bo'rieva M.R., Tojjeva Z.N. Aholi geografiyasi. Ma'ruzalar matni. – T., 2000.
6. Bo'rieva M.R., Egamova D.N. Dunyo aholisi: Rivojlanish jarayonlari (o'quv qo'llanma). – T.: Fan, 2008. – 156 b.
7. Bo'rieva M. R. O'zbekistonda oila demografiyasi. – T.,Universitet, 1997.-157 b.
8. Narodonaselenie. Ensiklopedicheskiy slovar. – M., 1994.
9. Ubaydullaeva R.A., Ata-Mirzaev O.B., Umarova N.O. O'zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi (ilmiy-o'quv qo'llanma). – T., 2006.

## **Elktron manbalar:**

1. <http://ziyonet.uz>